

# Qishloq va suv xo'jaligida transportdan foydalanish

Reja;

- 1 Qishloq va suv xo'jaligida transportdan foydalanish fanining maqsadi mazmuni va vazifasi
- 2 O'z.Resda transport tizimini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari
- 3 Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Fanning maqsadi - “Qishloq va suv xo‘jaligida transportdan foydalanish” fani bo‘yicha talabalarni qishloq va suv xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va texnik vositalarni tanlash, ulardan samarali foydalanish usullari va transport ishini tashkil etishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi transport ishi jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat

# BUYUK IPAK YO'LI

Ming yillar davomida Markaziy Osiyo Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalar va sivilizatsiyaning kirib kelish markazi bo'lgan.

Globalashuv asrida Markaziy Osiyoning roli xalqaro transit sohalari og'ishmay o'smoqda.






O'zbekiston Respublikasida transport tizimini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari bo'yicha Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish kabi vazifalarni belgilab bergan.

1. Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo'llarining uzunligi 22 ming km.ni tashkil etadi.
2. Qozog'iston eng yirik va eng ko'p foydalaniladigan temir yo'llar tizimiga ega. Uning hissasiga mintaqadagi temir yo'llarning 66 % va barcha yuk tashishlarning 84 % to'g'ri keladi.
3. Mintaqadagi temir yo'llarning qariyb 18 % O'zbekiston hududidan o'tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 % mamlakatimiz hissasiga to'g'ri keladi.
4. Turkmaniston taxminan 12 % mintaqaviy temir yo'llarga egalik qiladi va barcha tashishlarning 4 % ta'minlaydi.
5. 2016 yil 22 iyun kuni Angren - Pop temir yo'li ochilgan. Ushbu yo'nalish Xitoy - Markaziy Osiyo - Evropa temir yo'lining muhim bo'g'ini sifatida Xitoydan Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mamlakatlariga eng qisqa yo'l orqali chiqishni ta'minlaydi va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.
6. 1992 yilda to'xtatilgan aviaqatnovlar 2017 yil fevral oyida Toshkent va Dushanbe o'rtasida qayta tiklandi.

2018-2023 yillarda Xitoy va G'arbiy Evropani bog'laydigan "Evroosiyo" transport yo'lagini qurish va foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ushbu magistral Pekindan boshlab Ostona, Moskva va Minsk orqali Berlinga qadar davom etadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2050 yilga borib ushbu yo'lak orqali yiliga 37 million yo'lovchi tashilishi ko'zda tutilgan. "G'arbiy Evropa - G'arbiy Xitoy", uning Xitoy - Qozog'iston qismi 2016 yilda ish boshlagan bo'lib, Evropaga eltuvchi eng qisqa avtomobil yo'li hisoblanadi. Bu erda yuk tashish muddati 10-12 kunni tashkil etadi. 2030 yilga qadar to'liq ishga tushirilishi kutilmoqda. Yo'lak SanktPeterburg - Moskva - Orenburg - Oqto'ba - Olmaota - Qorg'as orqali o'tadi.

Qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarishida yuklarni o‘z vaqtida olib ketish va etkazib berishda ham transport alohida o‘rin tutadi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari tasarrufidagi suv va qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, joylardagi bo‘limlari, irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmalari, joylardagi tashkilotlari, transport korxonalarini, mashinatraktor parklari, qurilish-montaj korxonalarini, davlat unitar korxonalarini suv va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy bajariladigan ishlaridan hisblanadi. Yuk aylanmasining 90 % dan ortig‘ini temir yo‘l transporti egallagan. Bu turdagi transportning asosiy o‘rni uning yil davomidagi har qanday ob-havo sharoitida qat‘iy nazar yuqori darajadagi yuk o‘tkazish qobiliyati va muqimligidir.



**3- rasm. 80 o.k. traktor modellarining kengayishi**

. Самосвал MAN TGS 33.360 6×4 BB 20 т Dvigatel quvvati 360 o.k, EURO - 3; Ruxsat etilgan og'irligi - 33 000 kg Yuk ko'taruvchanligi - 20 000 kg; Kuzovining hajmi - 16 m<sup>3</sup>





Самосвал MAN CLA 31.280 6×4 BB 16 т Dvigatel  
quvvati 280 o.k, EURO - 3; Ruxsat etilgan og'irligi -  
31 000 kg Yuk ko'taruvchanligi - 16 000 kg;  
Kuzovining hajmi - 15 m<sup>3</sup>



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT